

KOMMUNAL XIZMATLAR TIZIMINING IQTISODIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING UY-JOY FONDIDAGI ROLI

Muminov Obidjon Odilovich

Buxoro davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-7903-6772

E-mail: obidjonmuminov83@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ko‘p xonadonli uy-joy fondida kommunal xizmatlar ko‘rsatish tizimining iqtisodiy mohiyati hamda uning infratuzilma tizimidagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilingan. Kommunal xizmatlar tizimining asosiy iqtisodiy xususiyatlari, jumladan kapital talab qiluvchanlik, uzluksizlik, tabiiy monopoliya xususiyati, ijtimoiy ahamiyati hamda davlat tomonidan tartibga solinishi kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, kommunal xizmatlar sifati tushunchasi, uni baholash mezonlari hamda ko‘p xonadonli uy-joy fondida xizmatlar sifatini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillar tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida kommunal xizmatlar tizimining samaradorligi uy-joy fondini boshqarish mexanizmlari, muhandislik infratuzilmasining texnik holati hamda tashkiliy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liqligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kommunal xizmatlar, ko‘p xonadonli uy-joy fondi, kommunal infratuzilma, xizmat sifati, kommunal xizmatlar tizimi, uy-joy fondini boshqarish, tabiiy monopoliya, infratuzilma iqtisodiyoti.

Аннотация

В данной статье теоретически анализируются экономическая сущность системы предоставления коммунальных услуг в многоквартирном жилищном фонде и её место в инфраструктурной системе. Раскрыты основные экономические особенности системы коммунальных услуг, такие как капиталоемкость, непрерывность, характер естественной монополии, социальная значимость и государственное регулирование. Также анализируются понятие качества коммунальных услуг, критерии его оценки и факторы, влияющие на обеспечение качества услуг в многоквартирном жилищном фонде. По результатам исследования обоснована тесная взаимосвязь эффективности системы коммунальных услуг с механизмами управления жилищным фондом, техническим состоянием инженерной инфраструктуры и организационно-экономическими факторами.

Ключевые слова: коммунальные услуги, многоквартирный жилищный фонд, коммунальная инфраструктура, качество услуг, система коммунальных услуг, управление жилищным фондом, естественная монополия, экономика инфраструктуры.

Abstract

This article theoretically analyzes the economic essence of the utility system in the multi-apartment housing stock and its role in the infrastructure system. The main economic features of the public utilities system, including capital intensity, continuity, the nature of natural monopolies, social significance, and state regulation, are

highlighted. The concept of the quality of utilities, the criteria for its assessment, and the factors influencing the quality of services in the multi-apartment housing stock are also analyzed. As a result of the research, it was substantiated that the effectiveness of the utility system is closely related to the mechanisms of housing stock management, the technical condition of engineering infrastructure, and organizational and economic factors.

Keywords: utilities, multi-apartment housing stock, utilities infrastructure, service quality, utilities system, housing stock management, natural monopoly, infrastructure economy.

KIRISH

Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining ortib borishi hamda shahar infratuzilmasiga boʻlgan talabning oshishi kommunal xizmatlar tizimini samarali tashkil etish masalasini dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, koʻp xonadonli uy-joy fondida kommunal xizmatlar koʻrsatish jarayoni aholining turmush darajasi, yashash sharoiti hamda ijtimoiy farovonligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli mazkur sohada xizmatlar sifatini taʼminlash va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Kommunal xizmatlar tizimi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari faoliyati bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, suv taʼminoti, oqova suv tizimi, issiqlik, elektr energiyasi, gaz taʼminoti, maishiy chiqindilarni boshqarish hamda uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish kabi xizmatlar majmuini qamrab oladi. Mazkur xizmatlarning uzluksiz va sifatli koʻrsatilishi koʻp xonadonli uy-joy fondining barqaror faoliyat yuritishini taʼminlash bilan birga, aholining qulay yashash muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, kommunal xizmatlar tizimi kapital talab qiluvchanligi, infratuzilmaviy xarakteri hamda tabiiy monopoliya xususiyatlari bilan boshqa xizmat turlaridan farqlanadi. Bu esa mazkur sohada davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini qoʻllash, xizmatlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, koʻp xonadonli uy-joy fondida kommunal xizmatlar sifatini taʼminlashning nazariy asoslarini oʻrganish hamda xizmatlar sifati shakllanishiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunal xizmatlar tizimi infratuzilma iqtisodiyoti, uy-joy siyosati hamda shahar boshqaruvi doirasida keng oʻrganilgan. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mazkur soha koʻpincha “public utilities”, “urban infrastructure services” yoki “housing and communal services” tushunchalari orqali talqin qilinadi. Tadqiqotlar kommunal xizmatlarning iqtisodiy, institutsional hamda ijtimoiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

Infratuzilma iqtisodiyoti doirasida olib borilgan tadqiqotlarda kommunal xizmatlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholanadi. Jumladan,

R.Sendi va B.Kerbler ko‘p xonadonli uy-joy fondining rivojlanishini tahlil qilib, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari shaharlarning iqtisodiy barqarorligi va hududiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini asoslab bergan [1]. Shuningdek, S.Tsenkova uy-joy islohotlari jarayonida kommunal xizmatlar tizimi iqtisodiy transformatsiyaning muhim institutsional elementi sifatida shakllanishini ta’kidlaydi[2].

Kommunal xizmatlar tizimining iqtisodiy xususiyatlarini tushuntirishda W.J.Baumol tomonidan ishlab chiqilgan tabiiy monopoliya va raqobatga ochiq bozorlar nazariyasi muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Muallifning fikricha, doimiy xarajatlar yuqori bo‘lgan tarmoqlarda xizmatlarni bitta operator tomonidan ko‘rsatish iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo‘lishi mumkin[3].

Infratuzilma investitsiyalari va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik A.Estache va M.Fay tadqiqotlarida ham yoritilgan. Mualliflar kommunal xizmatlar sohasida investitsiya yetishmovchiligi uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish zarurligini asoslaydilar[4].

D.Hall va E.Lobina kommunal xizmatlar sohasida xususiylashtirish jarayonlarini tahlil qilib, ayrim mamlakatlarda liberalizatsiya kutilgan natijalarni bermaganini qayd etadilar[5]. S.Bouzarovski esa kommunal xizmatlar narxining oshishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi[6].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kommunal xizmatlar tizimi asosan iqtisodiy transformatsiya sharoitida shakllanayotgan institutsional o‘zgarishlar doirasida o‘rganilgan. Jumladan, N.Kosareva va A.Ulyukayev uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni evolyutsion va radikal yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilgan bo‘lsa[7], A.Taslunov va A.Barabanov tarif siyosatini shakllantirish mexanizmlarini o‘rganib, ishlab chiqarish xarajatlari, investitsiya ehtiyoji hamda aholining to‘lov qobiliyati o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydilar[8].

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida esa uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimini rivojlantirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda tarif siyosatini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Jumladan, X.Kaxramonov uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash zarurligini asoslaydi[9]. D.Xudaykulov tarif siyosatini iqtisodiy asoslash masalalarini tahlil qilgan bo‘lsa, R.Nurimbetov va A.Metyakubov uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali kommunal xizmatlar samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar[10],[11].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda kommunal xizmatlar tizimi ko‘pincha umumiy infratuzilma iqtisodiyoti doirasida o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa ko‘p xonadonli uy-joy fondida kommunal xizmatlar sifati va uni ta’minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning bir qator umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, kommunal xizmatlar tizimining iqtisodiy

mohiyati va uning ko‘p xonadonli uy-joy fondi tizimidagi o‘rnini o‘rganishda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya hamda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Kommunal xizmatlar tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirishda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida kommunal xizmatlar sifati tushunchasini aniqlash hamda uning asosiy mezonlarini belgilashda nazariy tahlil va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Bundan tashqari, kommunal xizmatlar tizimining iqtisodiy xususiyatlarini aniqlashda induksiya va deduksiya usullari qo‘llanilib, turli ilmiy qarashlar asosida nazariy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunal xizmatlar tizimi iqtisodiyotning boshqa xizmat turlaridan bir qator o‘ziga xos iqtisodiy xususiyatlari bilan farqlanadi. Mazkur xususiyatlar kommunal xizmatlar sohasining infratuzilmaviy xarakterga ega ekanligi hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga tayanishi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval.

Kommunal xizmatlar tizimining asosiy iqtisodiy xususiyatlari va ularning iqtisodiy tavsifi¹

T/r	Kommunal xizmatlarning asosiy xususiyatlari	Tavsifi
1.	Kapital talab qiluvchanlik	Kommunal xizmatlar infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi.
2.	Uzluksizlik	Suv, issiqlik va elektr energiyasi kabi kommunal xizmatlar aholiga doimiy va uzluksiz yetkazib berilishi zarur.
3.	Tabiiy monopoliya	Kommunal xizmatlar infratuzilmasining yagona muhandislik tarmoqlariga asoslanganligi sababli ushbu xizmatlar ko‘pincha cheklangan sonli operatorlar tomonidan ko‘rsatiladi hamda davlat tomonidan tartibga solinadi.
4.	Ijtimoiy ahamiyat	Kommunal xizmatlar aholining turmush darajasi, sanitariya holati va hayot sifatini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy infratuzilma xizmatlari hisoblanadi.
5.	Uzoq muddat xizmat qiluvchi muhandislik-infratuzilma obyektlariga tayanishi	Kommunal xizmatlar ko‘rsatishda foydalaniladigan muhandislik tarmoqlari va inshootlari uzoq muddat foydalaniladigan asosiy vositalar hisoblanadi.
6.	Davlat tomonidan tartibga solinishi	Kommunal xizmatlar tariflari, xizmat sifati va faoliyat standartlari ko‘pincha davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi.
7.	Tarmoqlararo bog‘liqlik	Kommunal xizmatlar energetika, qurilish va transport kabi boshqa infratuzilma tarmoqlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

T/r	Kommunal xizmatlarning asosiy xususiyatlari	Tavsifi
8.	Hududiy bog‘liqlik	Kommunal xizmatlar tizimi hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, demografik holati va tabiiy sharoitlariga bog‘liq ravishda shakllanadi.

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida kommunal xizmatlar tizimining asosiy iqtisodiy xususiyatlari aniqlashtirildi. Jumladan, ushbu soha yuqori kapital talab qiluvchanligi bilan tavsiflanadi, chunki muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Shuningdek, kommunal xizmatlar uzluksizlik tamoyiliga asoslanadi, ya’ni suv, issiqlik va elektr energiyasi kabi xizmatlar aholiga doimiy va barqaror ravishda yetkazib berilishi zarur.

Tadqiqot jarayonida kommunal xizmatlar tizimining yana bir muhim xususiyati sifatida uning tabiiy monopoliya xarakteriga ega ekanligi aniqlangan. Muhandislik tarmoqlarining yagona tizim sifatida faoliyat yuritishi sababli ushbu sohada ko‘pincha cheklangan sonli operatorlar faoliyat yuritadi va mazkur faoliyat davlat tomonidan tartibga solinadi.

Kommunal xizmatlar tizimi yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilma tarmog‘i hisoblanadi. Ushbu xizmatlar aholining turmush darajasi, sanitariya holati hamda yashash muhitining qulayligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kommunal xizmatlar sifati asosan xizmatlarning uzluksizligi, ishonchliligi, texnik standartlarga muvofiqligi hamda iste’molchilar qoniqish darajasi kabi mezonlar orqali baholanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p xonadonli uy-joy fondida kommunal xizmatlar sifati ko‘p jihatdan muhandislik infratuzilmasining texnik holati, boshqaruv tizimining samaradorligi hamda xizmat ko‘rsatish jarayonining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur omillar kommunal xizmatlar sifatini baholashda qo‘llaniladigan asosiy mezonlar orqali namoyon bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Kommunal xizmatlar sifatini baholash mezonlari¹

¹ Manba muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan

1-rasmda ko'rsatilganidek, kommunal xizmatlar sifati bir qator muhim mezonlar asosida baholanadi. Ushbu mezonlar xizmatlarning uzluksizligi, ishonchligi, tezkorligi, texnik standartlarga muvofiqligi hamda iste'molchilar qoniqish darajasini o'z ichiga oladi. Mazkur mezonlar kommunal xizmatlar tizimining samaradorligini aniqlash hamda xizmat ko'rsatish jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari kommunal xizmatlar sifati ko'p xonadonli uy-joy fondida muhandislik infratuzilmasining texnik holati, boshqaruv tizimining samaradorligi hamda xizmat ko'rsatish jarayonining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari kommunal xizmatlar tizimi infratuzilma iqtisodiyotining muhim elementi ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan iqtisodiy xususiyatlar - kapital talab qiluvchanlik, uzluksizlik, tabiiy monopoliya hamda ijtimoiy ahamiyat - kommunal xizmatlar tizimining o'ziga xos jihatlari ifodalaydi. Bu jihatlarda mazkur sohaning boshqa xizmat turlaridan sezilarli darajada farq qilishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar xorijiy va MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy qarashlari bilan ham uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Xususan, W. Baumol tomonidan ishlab chiqilgan tabiiy monopoliya nazariyasida muhandislik infratuzilmasiga asoslangan tarmoqlarda xizmatlarni cheklangan sonli operatorlar tomonidan ko'rsatish iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shuningdek, A. Estache va M. Fay tadqiqotlarida infratuzilma investitsiyalarining iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga egaligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari kommunal xizmatlar sifati ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish tizimi bilan bevosita bog'liq ekanligini ham ko'rsatdi. Xizmatlar sifati nafaqat muhandislik infratuzilmasining texnik holati, balki boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi va xizmat ko'rsatish jarayonining tashkiliy jihatlari bilan ham belgilanadi. Shu sababli kommunal xizmatlar tizimini rivojlantirish jarayonida infratuzilmani modernizatsiya qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xizmatlar sifati ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, kommunal xizmatlar sohasida xizmatlar sifatini ta'minlash uchun samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish, investitsiyalarni jalb etish hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunal xizmatlar tizimi ko'p xonadonli uy-joy fondining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim infratuzilmaviy tarmoq hisoblanadi. Mazkur soha kapital talab qiluvchanligi, uzluksizlik tamoyiliga asoslanishi, tabiiy monopoliya xususiyatiga egaligi hamda yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi.

O'tkazilgan nazariy tahlil kommunal xizmatlar sifati muhandislik infratuzilmasining texnik holati, boshqaruv tizimining samaradorligi hamda xizmat

ko'rsatish jarayonining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, xizmatlar sifatini baholashda uzluksizlik, ishonchlik, texnik standartlarga muvofiqlik hamda iste'molchilar qoniqish darajasi kabi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ko'p xonadonli uy-joy fondida kommunal xizmatlar sifatini oshirish uchun muhandislik infratuzilmasini modernizatsiya qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xizmat ko'rsatish jarayonining samaradorligini oshiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish zarur hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar kommunal xizmatlar tizimini takomillashtirish hamda uy-joy fondining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sendi R., Kerbler B. The evolution of multifamily housing: Post-second world war large housing estates versus post-socialist multifamily housing types in Slovenia // Sustainability. - 2021. - Vol. 13, No. 18. - P. 10363.
2. Tsenkova S. Housing Reforms: Implementation Challenges and Opportunities. - Geneva: United Nations Economic Commission for Europe (UNECE), 2011.
3. Baumol, W. J. (1977). On the Proper Cost Tests for Natural Monopoly in a Multiproduct Industry. American Economic Review, 67(5), 809-822.
4. Estache A., Fay M. Current Debates on Infrastructure Policy [Text] / A. Estache, M. Fay. - Washington, DC : World Bank, 2007. - (Policy Research Working Paper).
5. Hall D., Lobina E. Water as a Public Service [Electronic resource] / D. Hall, E. Lobina. - London : Public Services International Research Unit (PSIRU), University of Greenwich, 2006.
6. Bouzarovski S. Geographies of energy poverty and vulnerability in the European Union // In: Energy Transition and Social Inequalities in Europe. - Cham: Springer, 2016.
7. Kosareva N., Ulyukayev A. Reform of the Communal Housing Economy // Problems of Economic Transition. - 1998. - Vol. 41, № 8. - P. 5-28.
8. Taslunov A.N., Barabanov A.S. Analysis of tariff regulation in housing and utilities economy (in case of the city of Vologda) // Ekonomicheskie i sotsial'nye peremeny: fakty, tendentsii, prognoz. - 2011. - № 6 (18). - P. 170-178.
9. Kakhramonov K.S. (2021). Comprehensive assessment and methods of increasing the efficiency of housing and communal services management in the Republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (95), 173-176.
10. Xudaykulov D.X. (2018). Uy-joy kommunal xo'jaligida tarif siyosatini takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot va moliya, (4), 43-49-betlar.
11. Nurimbetov R.I., Metyakubov A.D. Advanced Housing Fund Management System As A Tool For Improving Delivery Of Municipal Services On Client Satisfaction // PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. - 2020. - Vol. 17, № 6. - P. 1-14.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**